

# O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA DINIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA UCHRAYDIGAN MADANIYATGA OID O'ZIGA XOSLIKLER VA ULARNING KONTEKSTDAGI AHAMIYATI

Ismoilova Feruza Axmatjonovna

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada matnlarni tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan madaniy va milliy, urf-odatlarni ifodalovchi, faqat o'zbek tilida gaplashuvchilarga tushunarli bo'lgan ibora va lug'aviy birliklarni ingliz tiliga qay tarzda professional darajada tarjima qilish tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida duch kelinadigan turli xil yondashuvlar o'r ganilib, tadqiq etiladi va kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida yangi metodlar taqdim etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *madaniyat, lug'aviy birlik, leksik ekvivalent, izoh, didaktik asar, boshqa madaniyat vakili*

**Abstract:** *This article analyzes how to professionally translate into English the phrases and lexical units that are encountered in the process of translating texts, representing cultural and national traditions, which are familiar for only to Uzbek speakers. Various approaches encountered in the process of translation are studied and new methods are presented in order to eliminate the observed shortcomings.*

**Key words:** *culture, lexical unit, lexical equivalent, explanation, didactic work, representative of another culture*

## KIRISH

Bir tilda yaratilgan asar boshqa tilga tarjima qilinish jarayonida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Jumladan keng auditoriyaga materialni yetkazib berish, ma'lum hududdagina ommalashgan badiiy yoki didaktik va yoki ilmiy asar muallifini boshqa tilda gaplashuvchi xalqqa ham tanitish imkoniyati faqatgina tarjima orqali amalgalashiriladigan murakkab va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Bu jarayon o'z-o'zidan tarjimondan yuksak mahorat talab etadi. Xususan, bir tildan ikkinchi tilga ma'lum matnni tarjima qilish jarayonida leksik, semantic, stilistik muammolar bir qatorda madaniy muammolarga duch kelinishi va ularni boshqa madaniyat vakiliga mukammal yetkazib, tushuntirib bera olish dolzarbdir. Zero, lug'aviy birliklar yoki so'z boyligining darajasi madaniy o'ziga xosliklarni ifodalab berishga yetarli bo'lmaydi. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov fikriga ko'ra tarjimon faqatgina ikki tilni emas balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatlarning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo'lmashigi mumkin.<sup>[1]</sup> Har bir xalqning o'zigagina ma'lum bo'lgan tushunchalar mavjud bo'lganidek, o'zbek tilida ham shunday iboralar borki ularni bevosita izohli lug'atlardan yoki akademik materiallardan qidirib topish amri mahol. M.Alshammari aytganidek ikki qardosh bo'lmanagan xalq tillaridan biridan ikkinchisi qilingan tarjimada madaniyatga xos so'zlarda ma'no nozikligining yo'qolishi yuzaga keladi.<sup>[2]</sup> Xo'sh bunday vaziyatda tarjimon qanday yo'l tutadi?

## METODLAR

Ushbu maqolada turli xil asarlar tarjimasidagi madaniyatga oid so'zlar diskriptiv analiz qilinadi va namuna sifatida o'zbek tilidan ingliz tiliga ayni terminlar tarjimasiga amaliy va ijodiy yondoshish maqsadida tarjima varianti misol sifatida olinadi.

### Analiz va natijalar

Shu o'rinda N.Azatova[3] tomonidan qilingan tarjimaga ko'ra biroz g'alizlik yuzaga keladi:

"U elga qirq kecha-yu qirq kunduz osh berib to'y qilibdi" – "He organized osh for wedding party which lasted for forty days".

Agar bu tarjimani badiiy asar sifatida o'qiyotgan kitobxon o'zbek millatiga mansub bo'limgan, urf-odatlaridan bexabar inson bo'lsa, voqeaneing mohiyatini to'liq tushunishida va tasavvur qilishida chalkashlik yuzaga kelish ehtimoli yuqori. Chunki, "osh bermoq" lug'aviy birligini "organized osh" tarzida taqdim etilganda ingliz millatiga mansub bo'lgan yoki ingliz tilida ushbu asardan baxra olayotgan boshqa millat vakili ayni hududdagi to'y marosimi faqat shu milliy ovqatni tarqatishdan iborat deb tushunishi mumkin. O'quvchiga mazmunni to'liq yetkazib berish maqsadida bu vaziyatda so'zma-so'z tarjimadan chekinish yoki izoh berish madaniyatga va urf-odatga tegishli birikmalarни ohib berishda ko'proq natijaga erishiladi:

"U elga qirq kecha-yu qirq kunduz osh berib to'y qilibdi" – "He celebrated wedding party welcoming the guests with osh for forty days".

Xuddi shuningdek Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Sog'lom bola" asarida quyidagicha iboraga duch kelish mumkin.

"Avvallari bola tug'ilishi munosabati bilan "yuvish" degan marosim qiladiganlar bor edi. "Yuvish"da kelganlarga to'yunicha aroq ichirilardi." [4] – Earlier, there were people who performed a ritual called "washing" which was celebrated as soon as a new child was born. Alcohol was drunk until they were full for those who came to "washing".

Bu o'rinda "yuvish" so'zini "washing" deb tarjima qilishning o'zi yetarli emas va so'zga qavslar ichida izoh berish eng optimal variant hisoblanadi. Ya'ni quyidagicha:

Earlier, there were people who performed a ritual called "washing" (celebration of any happy moments by local people) which was celebrated as soon as a new child was born. Alcohol was drunk until they were full for those who came to "washing". [5]

Ya'ni bu o'rinda "washing" madaniy terminiga "mahalliy aholi tomonidan har qanday xursandchilik onlarining nishonlanishi" deb izoh berishlik, ushbu terminning ma'no nozikliklarini o'quvchiga yetkazib berishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, matjima jarayonida madaniyatga tegishli leksik birikmalarни tarjima qilish jarayonida so'zma-so'z tarjimadan chekingan holda, matnga kengroq tavsif berish yoki terminga aloxida izoh berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu nafaqat tarjimon mahoratini balki asarning ta'sir kuchini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1] I.G'afurov, O.Mo'minov,N.Qambarov, "Tarjimanazariysi", Toshkent -2012, 28-35-b.
- [2] J.N.M.Alshammari "Examining Nida's translation theory in rendering Arabic proverbs into English: a comparative analysis study", Vol.3, 2016, p.7.
- [3] N.A.Azatova "Madaniyatga xos so'zlarni tarjima qilish strategiyalari xususida", Vol.36, 2023, 4-b.
- [4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Sog'lom bola", 2023, 34-35- b
- [5] Macmillan English Dictionary, Second edition, 2007.